

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

SHOLINING O'SUV DAVRI VA RIVOJLANISHIGA MINERAL O'G'ITLAR ME'YORLARINI TASIRI

Karimboyeva Shohista Bahodir qizi talaba

Farxod Xashimov, q.x.f.d., professor,

Shahboz Yoqubov, assistent,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

Agrobiotexnologiyalar va oziq – ovqat xavfsizligi instituti.

Tell +99899 9692593

Anotatsiya

Azotli o'g'itlar miqdorini oshirilishi ikkala o'rganilgan sholi navlarida ham, o'suv davrini nazorat variantiga nisbatan 9-14 kunga, to'liq pishishini «Iskandar» navida 13-15 kunga, «Guliston» navida 4-5 kunga uzayishiga olib keldi. Bu tuplash koeffitsientini ta'lluqli ravishda 1,5-1,1 ga, hosildor poyalar sonini 1 m² da 83-62 taga ortishi ya'ni, 1 gektarda 83-62 mingtagacha yon shoxlarning ko'p hosil bo'lishi va asosiy poyalardan keyin pishib yetilishi hisobiga vujudga keldi.

Kalit so'zlar. Sholi o'simligida Azotli, fosfor, kaliyl, mineral o'g'itlarning ta'siri

Mavzuning dolzarbligi. Yuqori hosil yetishtirish maqsadida, sholini o'sish va rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganish, tushunib yetish orqali bo'yini o'sishi, rivojlanishi, quruq massa to'plashi va hosil yig'ishni boshqarish, har bir nav uchun alohida belgilangan ilg'or agrotexnik tadbirlar qo'llab yetishtiriladigan hosilning salmog'ini oshirish mumkin. Sholi navlarini mineral va organik o'g'itlarga bo'lgan talabi, navlarning biologik xususiyati, atrof muhit ta'siri, tuproq va iqlim sharoiti kabi omillarni hisobga olgan holda aniqlanadi va qo'llanilayotgan agrotexnik tadbirlarda yuqoridagi omillar albatta etiborga olinadi. Mineral o'g'itlar miqdorining sholini o'suv davriga tasiri navning issiqlik va namlik bilan ta'minlanganligi, mahalliy sharoitga moslashganligi bilan bog'liq bo'lib, oxir oqibat navning maksimal yoki minimal darajada hosil berishini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Tajriba Xorazm viloyati Xiva tumani 2022-2023 "Yuksalish fermer" xo'jaligida olib borildi.

Sholining o'suv fazalariga mineral o'g'itlar miqdorining ta'siri («Iskandar» navi)

№	Variantlar	Tuplash	Ro'vaklash		Pishish		Amal davri
			Boshlanishi	yakuni	Boshlanishi	To'liq	
2023-yil							
1	Nazorat	17 VII	13 VIII	8VIII	20 VIII	11 IX	103

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

2	R120K 150	17 VII	12 VIII	10 VIII	21 VIII	12 IX	104
3	N60R20K150	18 VII	12 VIII	13VIII	23 VIII	14 IX	106
4	N90R120K150	19 VII	14 VIII	14 VIII	25 VIII	17 IX	109
5	N120R120K150	20 VII	5 VIII	15 VIII	28 VIII	20 IX	112
6	N150R120K150	20 VII	7 VIII	18 VIII	1 IX	23 IX	115
2024-yil							
1	Nazorat	16 VII	29 VII	11 VIII	23 VIII	15 IX	107
2	R120K 150	16 VII	31 VII	13 VIII	25 VIII	17 IX	109
3	N60R20K150	18 VII	3 VIII	15 VIII	26 VIII	20 IX	112
4	N90R120K150	19 VII	5 VIII	17 VIII	28 VIII	22 IX	115
5	N120R120K150	20 VII	8 VIII	19 VIII	31 VIII	26 IX	118
6	N150R120K150	20 VII	10 VIII	22 VIII	3 IX	28 IX	120

Sholining o'suv davri navning tez, o'rta yoki kechpisharligini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanib, bu ayniqsa mineral o'g'itlar miqdoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tajribalarni olib borgan yillarda o'rganilayotgan ikki navda ham barcha variantlarda bir xil agrotexnik tadbirlar qo'llashimizga qaramasdan o'suv davri davomida sezilarli farqlar ko'zga tashlandi. Ma'lumotlarni ta'kidlashicha, azotli o'g'it miqdorini oshib borishi tuplash fazasini kechikishiga olib keldi. Masalan, 1997 yil ma'lumotlari bo'yicha nazorat variantiga nisbatan 60 kg N berilgan 3 variantda 7 kunga, N 90 kg/ga berilganda 9 kunga, N 120-150 kg/ga berilganda 10 kunga kechikdi. Ushbu qonuniyat tajriba o'tkazilgan barcha yillarda qaytarilib yil ob-havosini kelishiga qarab 1998-2024 yillarda o'rtacha 3-4 kunni tashkil etdi. Ushbu holat ro'vaklash fazasini boshlanishi va tugallanishida ham qayd etildi. Ro'vaklash boshlanishidagi nazorat variantiga nisbatan farq 1997 yilda 13 kun, 2023 yilda 3 kun, 2024 yilda 5 kunni tashkil etdi. Ro'vaklash boshlanishidagi farq 1997 yildan tashqari katta bo'lmasada, lekin ro'vaklashni yakunlanishida juda sezilarli darajada bo'ldi. Bu ko'rsatkich tajriba olib borishning birinchi yilida 13 kunni, ikkinchi yilida 6 kunni, uchinchi yilida 8 kunni tashkil etdi. Mazkur qonuniyat sholining pishishini boshlanishi hamda to'liq pishish davrida ham kuzatildi. Pishishni boshlanishi nazorat variantiga nisbatan N 60 kg/ga berilganda o'rtacha 3 kunga, N 90 kg/ga berilganda 5-7 kunga, N 120 kg/ga da 7-8 kunga, N 150 kg/ga da 11-13 kunga kech boshlandi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, azotli o'g'it me'yori ortib borishi sholini to'liq pishib yetilishini kechikishiga olib

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

keldi. Nazorat variantiga nisbatan N 120- 150 kg/ga qo'llanilganda pishib yetilishi o'rtacha 7-8 kundan 15 kungacha cho'zildi. Shuningdek, azotli o'g'itlarni qo'llanishi sholining o'suv davrini 9-14 kunga uzayishiga olib keldi. 24 O'suv davrining uzayishi asosan mineral o'g'itlar miqdorini oshishi tufayli nazorat variantiga nisbatan yon shoxlarni ko'p hosil bo'lishi va asosiy poyadan keyin pishib yetilishi hisobiga vujudga keldi.

Sholining o'suv fazalariga mineral o'g'itlar miqdorining ta'siri («Guliston» navi)

№	Variantlar	Tuplash	Ro'vaklash		Pishish		Amal davri
			Boshlanishi	yakuni	Boshlanishi	To'liq	
2023-yil							
1	Nazorat	6 VII	13 VIII	21 VIII	20 IX	13 X	116
2	R120K 150	7 VII	12 VIII	19 VIII	21 IX	13 X	116
3	N60R20K150	9 VII	12 VIII	20VIII	23 IX	18 X	120
4	N90R120K150	10 VII	14 VIII	24 VIII	25 IX	20 X	121
5	N120R120K150	12 VII	15 VIII	25 VIII	27 IX	23 X	123
6	N150R120K150	14 VII	16 VIII	27 VIII	3 X	25 X	126
2024-yil							
1	Nazorat	9 VII	11 VIII	19 VIII	20 IX	13 X	117
2	R120K 150	11 VII	12 VIII	20 VIII	21 IX	13 X	117
3	N60R20K150	13 VII	12 VIII	20 VIII	23 IX	18 X	120
4	N90R120K150	15 VII	14 VIII	24 VIII	25 IX	20 X	121
5	N120R120K150	16 VII	15 VIII	25 VIII	27 IX	23 X	123

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

6	N150R120K150	18 VII	16 VIII	27 VIII	3 X	25 X	126
---	--------------	--------	---------	---------	-----	------	-----

Ko'chat usuli bilan sholi yetishtirishda «Iskandar» navida mineral o'g'itlarning variantlar bo'yicha oshib borishi o'suv davrining nazorat variantiga nisbatan 13 kungacha uzayishiga olib keldi. «Guliston» navida variantlar o'rtasidagi farq 4-5 kunni tashkil qildi. Ko'chat usuli bilan sholi yetishtirishda o'rganilayotgan navlarning o'suv davridagi farqiga birinchidan, navlarning biologiyasi ya'ni tez va o'rtapisharligi, ikkinchidan, navning tuplanish darajasiga bog'liq bo'lib «Guliston» navi tezpisharligi va tuplanish darajasi «Iskandar» naviga nisbatan pastligi sababli, o'rganilayotgan variantlarga bir xil miqdorda o'g'it berilishiga qaramasdan navlarning o'suv davridagi farq «Iskandar» navida 120-130 kun, «Guliston» navida 103-120 kundan iborat bo'ldi. Xulosa qiladigan bo'lsak, azotli o'g'itlarni qo'llanishi oqibatida hosildorlikni oshishi hisobiga o'suv fazalarini uzayishiga sabab bo'ldi. Sholining «Arpa sholi» turiga mansub «Guliston» navining o'suv davrida ham yuqoridagi holatlar kuzatildi. Ma'lumki, sholi urug'idan ekilganda azotli o'g'itlarga qanchalik talabchan bo'lmasin «Tolmas» navini hisobga olmaganda respublikamizda rayonlashtirilgan barcha navlarga beriladigan o'g'it miqdori (Xorazm viloyati sharoitida) 150-180 kg/gadan oshsa, o'simliklarni yotib qolishi kuzatilgan. Tadqiqotlarimizda navlarning tuplash darajasiga va hosildor poyalar soniga mineral o'g'itlar miqdorining ta'siri turlicha bo'lishi qayd etilib, nazorat «Iskandar» navining variantida 1 m² maydonda hosildor poyalar soni o'rtacha 160, faqat fosfor, kaliy 100% berilgan variantda 176, azot, fosfor, kaliy berilgan variantda 183, 150 kg, azot, fosfor, kaliy berilgan variantda 243 donani tashkil qildi. Bu nazorat variantiga nisbatan 1 m² da 83 dona, yoki bir gektar maydon hisobiga 830 ming dona hosildor poya ko'p demakdir. «Guliston» navida ham ushbu qonuniyat qayd etildi, lekin uni ko'rsatkichlari past bo'ladi.

Ko'chat qalinligi va hosildor poyalar soniga mineral o'g'itlar miqdorining ta'siri (o'rtacha 2 yillik).

Variant	O'simliklar soni, dona/1m ² .		Ko'chatni o'ringacha saqlanishi, %	Tuplash koeffitsienti	Hosildor poyalar soni, dona m ²
	ekish davrida	o'rimdan oldin			
«Iskandar» navi					

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

Nazorat (o'g'itsiz).	44	40	90	4.0	160
N0 R120K150	44	40	90	4.4	176
N60R120K150	44	41	93	4.4	183
N90R120K150	44	42	95	5.0	210
N120R120K150	44	44	100	5.5	243
N150R120K150	44	43	97	5.3	236
«Guliston» navi					
Nazorat (o'g'itsiz).	44	38	86	3.3	128
N0 R120K150	44	38	86	3.6	139
N60R120K150	44	40	90	4.1	166
N90R120K150	44	42	95	4.1	175
N120R120K150	44	42	95	4.3	184
N150R120K150	44	43	97	4.4	190

Tajriba maydonida ko'chat usulida sholi yetishtirishda ikki navga ham bir xil agrotexnika qo'llanishiga qaramasdan, «Iskandar» navida bir metr kvadrat maydonda variantlar bo'yicha 33-53 dona hosildor poyalar «Guliston» naviga nisbatan ko'p shakllandi. Taxlillarimizni ko'rsatishicha bu faqat navning biologik xususiyatiga xos ko'rsatkichdir. «Iskandar» navi «Guliston»ga nisbatan seleksiya nuqtai nazaridan va mahsulotning texnologik bahosidan kelib chiqqan holda bir necha ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori turishda yoki afzalligidadir. Mineral o'g'itlar qo'llash hisobiga tuplash koeffitsenti «Iskandar» navida 1,5 gacha, «Guliston» navida 1,1 gacha, hosildor poyalar soni ta'lluqli ravishda 83-62 taga oshirilishiga erishildi. Shunday qilib, sholi navlarining tuplash darajasi asosan navning biologik xususiyatiga bog'liq bo'lsada, lekin bu ko'rsatkichni mineral o'g'itlar miqdori hamda ekish usuli bilan ham boshqarish mumkinligi isbotlandi.

Xulosa. Azotli o'g'itlar miqdorini oshirilishi ikkala o'rganilgan sholi navlarida ham, o'suv davrini nazorat variantiga nisbatan 9-14 kunga, to'liq pishishini «Iskandar» navida 13-15 kunga, «Guliston» navida 4-5 kunga uzayishiga olib keldi. Bu tuplash koeffitsentini ta'lluqli ravishda 1,5-1,1 ga, hosildor poyalar sonini 1 m² da 83-

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 11, Ноябрь

62 taga ortishi ya'ni, 1 gektarda 83-62 mingtagacha yon shoxlarning ko'p hosil bo'lishi va asosiy poyalardan keyin pishib yetilishi hisobiga vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turaboyeva, B., Miyzamov, D., Qodirova, G., & Hayitov, M. (2023). KUZGI BUG 'DOYNI OLINGUGURT SAQLOVCHI O 'G 'ITLAR BILAN O 'G 'ITLASH. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 1182-1185
2. Mamadiyar, X., Mexroj, A., Dostonbek, M., & Baxtigul, T. (2023). MINERAL O'G'ITLAR TURLI ME'YOR VA NISBATLARINING KUZGI BUG'DOY DON HOSILIGA TA'SIRI. *PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION*, 19(23), 239-242.
3. Hayitov , M. . ., Muratkasimov, A., Miyzamov, D., & Usmanov, U. . (2023). MINERAL O'G'ITLAR TURLI ME'YOR VA NISBATLARINING KUZGI BUG'DOY DON SIFATI KO'RSATKICHILARIGA TA'SIRI. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(4 Part 2), 55–60. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/13203>
4. Farxod Xashimov, Shahboz Yoqubov, assistent, Ibragimova Nasiba,(2024). OQBOSH KARAM HOSILDORLIGIGA MINERAL VA ORGANIK O'G'ITLARINING HOSILDORLIGI VA HOSIL SIFATIGA TA'SIRI. // Т А Д Q I Q O T L A R. jahon ilmiy – metodik jurnali.
5. Khaitov, M., Rasulov, I., & Karshiyev, J. (2024). TECHNOLOGY AND METHODS OF PROPAGATION OF FRUIT SEEDLINGS. *Science and innovation*, 3(D9), 276-279.
6. Hayitov, M. A., Qarshiyev, J. D., Yoqubov, S. M., & Narzullayev, B. A. (2023). UZUMNING QORA KISHMISH NAVI TUPIDAGI BOSHLAR SONI VA ULARNING ORTACHA OGIRLIGIGA PS-AGROO'G'ITLAR MEYORINING TASIRI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(10), 187-191.
7. Хашимов.Ф.Х Хайитов .М.А Yoqubov, S. M., Қаршийев.Ж.Д (2023) МИКРОЎҒИТЛАРНИНГ ХЎРАКИ УЗУМ ТОЙФИ НАВИНИ ХОСИЛДОРЛИК КО'РСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. Ссиентифис аспестс анд трендс ин тхе фиелд оф ссиентифис ресеарч Интернационал ссиентифис онлайн конференсе, 124-127-бет.